



# “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati

PRESS-RELIZ

2023-yil 31-mart

## 2022-yil yakunlariga bag‘ishlangan matbuot anjumani to‘g‘risida

**2023-yil 31-mart kuni Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati faoliyatining 2022-yil yakunlari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun matbuot anjumani o‘tkazildi.**

Matbuot anjumanida “NKMK” AJ bosh direktorining iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosari Shuhrat Aminov, Byudjetlashtirish va kontrolling bo‘limi boshlig‘i Umidjon Kostayev, Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha direktor Xolmamat Raupov, OAV vakillari va jurnalistlar ishtirok etishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan kombinatda zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish, raqobatbardoshlikni oshirish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, sohaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida **2022-yil 1-yanvardan** boshlab korxonada “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati sifatida ish boshladi.

**2022-yil 30-may** kuni kombinat tarixida ilk marotaba 2021-yil uchun moliyaviy hisobotlarning to‘liq majmuasi Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlandi. Hisobot xalqaro audit kompaniyasi tomonidan tekshiruvdan o‘tkazildi va ijobiy xulosa berildi.

“NKMK” AJ mamlakatimizning yirik sanoat korxonasi hisoblanadi. Keyingi yillarda kombinatda strategik ahamiyatga ega investitsion loyihalar amalga oshirilayapti. Bu loyihalar doirasida 2022-yilda Tomdi tumani hududidagi “Balpantog” va “Tomdibuloq” konlarida birinchi portlatish ishlari amalga oshirildi va qazib olish ishlari boshlandi, “Tomdibuloq” konini 2-gidrometallurgiya zavodi bilan bog‘lovchi 35 kilometrlik temir yo‘l liniyasi foydalanishga topshirildi.

“NKMK” AJning respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **10,3 foizni**, davlat byudjetiga jami tushumlarining ulushi esa **20,1 foizni** tashkil etishi, 2022-yilda kombinat jahondagi oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar reytingida **4-o’rinni** egallaganligi ta’kidlab o’tildi.

2022-yilda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan **56,6 trln so’mlik** mahsulot ishlab chiqarildi. O’sish sur’ati o’tgan yilga nisbatan **106,2 foizga** teng bo’ldi. O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga **18,0 trln so’m** miqdorida soliqlar va majburiy to’lovlar hamda davlat ulushiga **15,3 trln so’m** dividendlar to’landi.

Investitsiya dasturi doirasida **486 mln dollarlik** mablag’ o’zlashtirilib, **2 095 ta** yangi ish o’rinlari yaratildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida **554,6 mlrd** so’mlik mahsulot ishlab chiqarildi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida **4,8 trln so’mdan** ortiq mahsulot xarid qilindi. Xarajatlarni maqbullashtirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar ijrosi mahsulot tannarxini qariyb **1,1 trln so’mga** kamaytirish imkonini berdi.

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati** – yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati! Kombinatda olib borilayotgan keng ko’lamli amaliy ishlar natijada ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot tannarhini pasaytirishga xizmat qiladi.

#### **Murojaat uchun ma’lumotlar:**

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: **+99879 227-75-88, 227-74-73**

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

[www.t.me/ngmkofficial](http://www.t.me/ngmkofficial)

[www.fb.com/nkmkofficial](http://www.fb.com/nkmkofficial)

[www.instagram.com/nkmk.official](http://www.instagram.com/nkmk.official)

[www.youtube.com/nkmkofficial](http://www.youtube.com/nkmkofficial)

[www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/](http://www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/)

[www.twitter.com/jsc\\_nmmc](http://www.twitter.com/jsc_nmmc)

#### **Ma’lumot uchun:**

"NKMK" AJ jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to’rttaligiga kiradi. Kombinat yer osti boyliklari zaxiralarni geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan to tayyor mahsulot olishgacha bo’lgan ishlab chiqarish jarayonlari to’liq amalga oshiriladigan yirik sanoat klasteridir. Kombinat zamonaviy kon-transport va texnologik uskunalar, ilg’or texnologiyalar bilan jihozlangan konlar, zavodlarga ega zamonaviy korxonadir. "NKMK" AJning "999,9" soflikdagi oltin quymalari jahonning qimmatbaho metallar bo’yicha birjalarida O’zbekistonning brendiga aylandi.